



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASI  
B U Y R I Q**

**2023-jil 25-avgust**

**№144**

**Nókis qalasi.**

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil  
17-avgust kungi 223-sonli buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-avgustdagi “Davlat aktivlarini sotish uchun xalqaro hamda mahalliy maslahatchini yoki tashkilotlarni jalb etishda eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi 352-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 17-avgustdagi 223-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-avgustdagi “Davlat aktivlarini sotish uchun xalqaro hamda mahalliy maslahatchini yoki tashkilotlarni jalb etishda eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi 352-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 17-avgustdagi 223-sonli buyrug‘i rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Mazkur qarorga muvofiq quyidagilar:

a) Davlat aktivlarini sotish uchun xalqaro hamda mahalliy maslahatchini yoki tashkilotlarni jalb etishda eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) tasdiqlanganligi;

b) Nizomga muvofiq quyidagilar:

Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasining tegishli qarori va topshiriqlariga asosan davlat aktivlarini sotish uchun xalqaro hamda mahalliy maslahatchini yoki tashkilotlarni jalb etish;

xarid komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini yuritish tartibi hamda vakolatlarini belgilash;

tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish, ekspertizadan o‘tkazish va e‘lonlarni joylashtirish tartibi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb-sayti orqali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlarini belgilash;

tanlov natijalarini rasmiylashtirish tartibi nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**3.** Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish sho'basi (Qarlibaev) Davlat aktivlarini sotish uchun xalqaro hamda mahalliy maslahatchini yoki tashkilotlarni jalb etish uchun eng yaxshi takliflarni tanlab olishda mazkur Qaror va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 17-avgust kungi 223-sonli buyrug'i ilovasida tasdiqlangan reglament talablari hamda Davaktiv agentligining topshirig'i asosida ish yuritishni ta'minlasin.

**5.** Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi v.v.b (Urazbaeva) buyruq nusxasini mazkur ko'rsatilgan mas'ullarga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

**6.** Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat o'rnatishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Boshqarma boshlig'i**



**M.Radjapov**